


# IJTIMOIY SOLIQ TUSHUMLARINI DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI O'RTASIDA MOLIYAVIY EHTIYOJGA BOG'LAB TAQSIMLASH MEXANIZMI

# A NEEDS-BASED MECHANISM FOR ALLOCATING SOCIAL TAX REVENUES AMONG STATE TRUST FUNDS

**[1]Alimqulov Hikmatulla Bahrom o'g'li**

[1]*Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti.*
***E-mail:*** *h.alimqulov@tsue.uz*

**Annotatsiya Abstract**

*Uzb.* - Maqolada ijtimoiy soliq tushumlarini davlat maqsadli jamg'armalari o'rtasida ularning moliyalashtirish ehtiyojiga bog'lab taqsimlash mexanizmi ishlab chiqilgan. 2026-yil parametrlarida ehtiyojning soliq hisobidan qoplanish ulushi 40,97–73,15 foizdan 72,09 foizda tenglashib, budjet transfertlari hajmi o'zgarmasligi ko'rsatilgan, Pensiya jamg'armasi uchun zaxiraga asoslangan transfert formulasi taklif etilgan.

*Eng.* - The article develops a mechanism allocating social tax revenues among state trust funds in proportion to their financing needs. Using 2026 parameters, coverage converges from 40.97–73.15 to 72.09 percent without changing total budget transfers; a reserve-based transfer formula is proposed for the Pension Fund.

***Kalit so'zlar: Keywords:***

❖ *ijtimoiy soliq, davlat maqsadli jamg'armalari, Pensiya jamg'armasi, taqsimlash me'yori, moliyalashtirish ehtiyoji, qoplanish darajasi, moliyalashtirish tafovuti, budjet transferti, zaxira qoldig'i, maqsadli soliq, fiskal barqarorlik, budjet tizimi.*

❖ *social tax, state trust funds, Pension Fund, allocation rate, financing need, coverage ratio, financing gap, budget transfer, reserve balance, earmarked tax, fiscal sustainability, budget system.*

## *Kirish.*

Aholini pensiya, ijtimoiy sug'urta, bandlikni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish dasturlari orqali ijtimoiy himoya qilish davlat moliyasining barqaror va oldindan rejalashtiriladigan daromad manbalariga bog'liq. Bunda ish beruvchilarning mehnatga haq to'lash bilan bog'liq to'lovlari asosida hisoblanadigan ijtimoiy soliq alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan Soliq kodeksi asosida 2020-yildan yagona ijtimoiy to'lov o'rniga ijtimoiy soliqni qo'llash tartibi joriy etildi [1]. Mazkur soliqning iqtisodiy xususiyati shundaki, tushumlar umumiy fiskal resurs sifatida erkin taqsimlanishidan ko'ra, asosan ijtimoiy majburiyatlarni moliyalashtiruvchi muayyan oluvchilar bilan bog'lanadi. Shu jihatdan taqsimotning asoslanganligi nafaqat tushumlarni yig'ish samaradorligiga, balki ijtimoiy to'lovlarni uzluksiz bajarish va davlat budjeti barqarorligiga ham ta'sir qiladi.

Maqsadli tushumlarni aniq xarajat yo'nalishiga biriktirishning nazariy asosi J. Buchanan tomonidan ishlab chiqilgan: bunday yondashuv soliq va davlat xizmati o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rinadigan qiladi [2].

Biroq W. McCleary maqsadli ajratmalar tarixan shakllangan ulushlarga qotib qolsa, budjet resurslarini ehtiyoj o‘zgarishlariga moslashtirish qiyinlashishini ta’kidlaydi [3]. R. Musgrave davlat moliyasida naf va qayta taqsimlash tamoyillarini uyg‘unlashtirish zarurligini asoslaydi [4]. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy soliqni faqat oldindan belgilangan foizlarda taqsimlash yetarli emas: oluvchilar majburiyatlari, boshqa daromadlari, pul mablag‘lari qoldig‘i va davlat budjeti transfertlari bilan o‘zaro bog‘liqligi birgalikda baholanishi lozim.

O‘zbekistonda davlat maqsadli jamg‘armalarining budjet tizimidagi o‘rni Budjet kodeksi bilan, ijtimoiy soliq tushumlarini hisobga olish va taqsimlashning amaliy tartibi esa Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi 661-son qarori bilan tartibga solinadi [5; 6]. 2026-yil uchun davlat budjeti parametrlari 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonunda belgilangan, ijtimoiy soliq tushumlarining oluvchilar bo‘yicha ulushlari esa Prezidentning 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-388-son qarorida tasdiqlangan [7; 8]. Mazkur qarorga ko‘ra, budjet tashkilotlari to‘laydigan ijtimoiy soliqdan Pensiya jamg‘armasiga 98,0 foiz, Davlat ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasiga 1,2 foiz, Bandlikka ko‘maklashish va Kambag‘allikni qisqartirish jamg‘armalariga birgalikda 0,4 foiz, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga 0,4 foiz yo‘naltiriladi. Boshqa to‘lovchilar uchun tegishli me’yorlar 95,9; 2,5; 0,8 va 0,8 foizni tashkil etadi [8]. Demak, bitta soliq turi bo‘yicha taqsimot to‘lovchi toifasiga qarab farqlanadi; bunday farqlashning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi esa alohida baholashni talab qiladi.

Taqsimotning dolzarbligi oluvchilar tarkibi va tushumlar hajmidagi o‘zgarishlar bilan ham belgilanadi. Davlat budjeti to‘g‘risidagi yillik qonunlar ilovalariga ko‘ra, davlat maqsadli jamg‘armalariga yo‘naltirilgan ijtimoiy soliq mablag‘lari 2024-yilda 45 635,6 mlrd so‘m, 2025-yilda 55 812,0 mlrd so‘m, 2026-yilda esa 64 047,9 mlrd so‘m etib rejalashtirilgan; uch yillik davrda o‘sish 40,3 foizni tashkil etadi [7; 9; 10]. Shu vaqt oralig‘ida ijtimoiy soliq tushumlarini oluvchilar soni ikkitadan beshtaga ko‘paygan. Jumladan, Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasi faoliyati 2025-yil 11-martdagi 158-son qaror bilan tartibga solingan [11]. Oluvchilar sonining ortishi bir xil resursni yangi majburiyatlar o‘rtasida taqsimlash masalasini dolzarblashtiradi; shu bilan birga, ulushlar ko‘payishi o‘z-o‘zidan samarasizlikni anglatmaydi, ularni jamg‘armalarning haqiqiy moliyaviy ehtiyoji bilan qiyoslash zarur.

Pensiya jamg‘armasi misolida mazkur muammo yaqqol ko‘rinadi. 2026-yil budjet parametrlarida jamg‘arma xarajatlari 86 093,2 mlrd so‘m, ijtimoiy soliqdan prognoz tushumlari 62 666,7 mlrd so‘m, davlat budjetidan transfertlar esa 23 000,0 mlrd so‘mni tashkil etadi [7]. Ijtimoiy soliq xarajatlarning qariyb 72,8 foizini qoplashi, xarajatlar bilan ushbu soliq o‘rtasidagi hisobiy tafovut 23 426,5 mlrd so‘mga yetishi nazarda tutilgan; tafovutni qoplashda transfertlar bilan bir qatorda jamg‘armaning boshqa moliyaviy manbalari ham hisobga olinadi. 2025–2027 va 2026–2028-yillarga oid budjetnoma ma’lumotlari asosidagi hisob-kitoblarga ko‘ra, 2022–2026-yillarda soliqning pensiya xarajatlarini qoplash darajasi 71,1–72,8 foiz oralig‘ida saqlangani holda, mutlaq moliyalashtirish tafovuti kengaygan [12; 13]. Bu holat tushumlar oshishi hamma vaqt ham moliyalashtirish xavfini kamaytirmasligini ko‘rsatadi.

Muammo faqat Pensiya jamg‘armasi bilan chegaralanmaydi. 2026-yilgi tasdiqlangan ko‘rsatkichlar asosida ushbu tadqiqotda bajarilgan balans hisob-kitoblariga ko‘ra, ijtimoiy soliqning jamg‘armalar moliyalashtirish ehtiyojidagi ulushi 40,97 foizdan 73,15 foizgacha farqlanadi; to‘rt jamg‘arma kesimida uning umumiy o‘rtacha qoplanish darajasi 72,09 foizni tashkil etadi [7; 13]. Ushbu foizlar jamg‘armalarning jami

xarajatlariga nisbatan emas, boshqa daromadlar, qoldiq mablag'lar o'zgarishi va budjet ssudalari saldosi inobatga olingan hisobiy ehtiyojga nisbatan aniqlangan. Shu sababli faqat xarajatlar hajmi yoki oldingi yilgi ulushlarga tayanish o'rniga, taqsimot me'yorlarini o'lchanadigan, ochiq e'lon qilinadigan ehtiyoj indikatoriga bog'lash ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy soliq tushumlarini davlat maqsadli jamg'armalari o'rtasida ularning moliyalashtirish ehtiyojiga mutanosib taqsimlash mexanizmini ishlab chiqish va uni 2026-yil parametrlarida ssenariy usulida baholashdan iborat. Buning uchun amaldagi huquqiy me'yorlar va budjet ko'rsatkichlari qiyoslanadi, jamg'armalar ehtiyoji yagona balans yondashuvi asosida hisoblanadi, amaldagi taqsimot bilan muqobil me'yor natijalari solishtiriladi. Tadqiqotning ilmiy-amaliy yangiligi ijtimoiy soliq ulushlarini jamg'armalarning hisobiy ehtiyoji bilan bog'lash, umumiy transfert hajmini o'zgartirmagan holda qoplanishdagi nomutanosiblikni kamaytirish imkoniyatini ko'rsatish va Pensiya jamg'armasi uchun maqsadli likvidlik zaxirasiga asoslangan alohida transfert formulasini taklif etishdan iborat.

## *Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.*

Maqsadli soliqlar nazariyasining asoslaridan biri J. Buchanan ishidir: u tushumni aniq xarajat yo'nalishiga bog'lash soliq to'lovchiga har bir davlat xizmatining hajmini alohida baholash imkonini berishini asoslagan [2]. W. McCleary esa Jahon banki tajribasi asosida maqsadli ajratmalar budjet moslashuvchanligini cheklashi va resurslarning ustuvorlik emas, tarixan shakllangan ulushlar bo'yicha taqsimlanishiga olib kelishi mumkinligini ko'rsatgan [3]. R. Musgrave naf tamoyili doirasida soliqlarni ular moliyalashtiradigan xizmatlar bilan bog'lash shartlarini ko'rib chiqqan [4].

Ijtimoiy sug'urtani moliyalashtirish bo'yicha M. Cichon va hammualliflar ish haqi fondiga asoslangan badallarni ijtimoiy himoyaning asosiy manbai sifatida tahlil qilib, jamg'armalar moliyaviy holatini muntazam aktuar baholash zarurligini asoslagan [14]. N. Barr ijtimoiy sug'urta sof aktuar sug'urtadan farq qilishini va uning moliyalashtirilishida davlatning roli muqarrar ekanini ko'rsatgan [15]. R. Holzmann va R. Hinz pensiya tizimlarini baholash mezonlari qatorida moliyaviy barqarorlik va davlat zimmasidagi yukning ko'tarib bo'ladigan darajada bo'lishini alohida ajratgan [16].

O'zbekistonda pensiya ta'minoti masalalariga bag'ishlangan mahalliy tadqiqotlarda ham moliyaviy xatar va ijtimoiy himoyaning barqarorligi muhim mezon sifatida qaraladi. Xususan, Sh. K. Xamdamov aholini ijtimoiy himoyalashda pensiya ta'minotining o'rnini yoritgan [17], yoshga doir pensiya ta'minoti bilan bog'liq demografik va moliyaviy xatarlarni alohida baholagan [18]. Mazkur ishlar pensiya tizimidagi risklarni ochib bersada, ijtimoiy soliq tushumlarini bir nechta davlat maqsadli jamg'armasi o'rtasida aynan ularning moliyalashtirish ehtiyoji asosida taqsimlash formulasini taklif etmaydi.

Mahalliy adabiyotda soliqlarni taqsimlash asosan budjet darajalari o'rtasidagi vertikal munosabat sifatida o'rganilgan: mahalliy budjetlar daromadlarini tartibga solish O.R. Meyliyev [19], budjetlararo mutanosiblikda soliqlarning roli A.X. Islamkulov [20], hudud daromad salohiyati X.A. Qobulov [21] ishlarida tadqiq etilgan. Ijtimoiy soliqning davlat maqsadli jamg'armalari o'rtasidagi taqsimoti va uning jamg'armalar moliyaviy ehtiyojiga muvofiqligi esa ushbu ishlarda alohida tadqiqot obyekti bo'lmagan. Maqola shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## *Tadqiqot metodologiyasi.*

Tadqiqot normativ-huquqiy tahlil, balans ayniyatlari usuli, qiyosiy tahlil va ssenariy

tahliliga tayanadi. Ma’lumotlar 2024–2026-yillar uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonunlarning davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari to‘g‘risidagi ilovalaridan [7; 9; 10], taqsimlash me’yorlari 2025–2026-yillar uchun tegishli Prezident qarorlaridan [8; 22], Pensiya jamg‘armasi ko‘rsatkichlari esa Budjetnomalardan [12; 13] olindi. Pensiya jamg‘armasining moliyaviy holati qoplanish darajasi va moliyalashtirish tafovuti bilan o‘lchanadi:

$$Cov_t = ST_t / X_t, \quad Gap_t = X_t - ST_t \quad (1)$$

bu yerda $ST_t$ t-yildagi ijtimoiy soliq tushumi, $X_t$ jamg‘arma xarajatlari, mlrd so‘m.

Rasmiy hujjatlarda ijtimoiy soliqning jami tushumi e’lon qilinmaydi, shuning uchun u to‘lovchi toifalari bo‘yicha me’yorlarni birlashtiruvchi aralash me’yor orqali tiklandi:

$$\theta_i^{aralash} = \theta_i^{boshqa} + w \cdot (\theta_i^{budjet} - \theta_i^{boshqa}) \quad (2)$$

bu yerda w budjet tashkilotlarining ijtimoiy soliqdagi ulushi; $\theta_i^{budjet}$ va $\theta_i^{boshqa}$ i-oluvchi uchun budjet tashkilotlari va boshqa to‘lovchilar bo‘yicha belgilangan me’yorlar. Pensiya va Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalariga tasdiqlangan summalardan w = 0,679 va 2026-yil uchun jami tushum 64 388,3 mlrd so‘m aniqlandi. Bandlikka ko‘maklashish va Kambag‘allikni qisqartirish jamg‘armalari bo‘yicha hisoblangan summa (340,2 mlrd so‘m) qonundagi qiymatga (340,0 mlrd so‘m) mos keladi.

Har bir jamg‘armaning moliyalashtirish ehtiyoji quyidagicha aniqlanadi:

$$Need_i = X_i + \Delta Q_i + S_i - D_i^{boshqa} \quad (3)$$

bu yerda $\Delta Q_i$ qoldiq mablag‘larning rejalashtirilgan o‘zgarishi, $S_i$ budjet ssudalari saldosi, $D_i^{boshqa}$ ijtimoiy soliqdan tashqari o‘z daromadlari, mlrd so‘m. Jamg‘arma budjetining balans ayniyatiga ko‘ra $Need_i$ ijtimoiy soliq va davlat budjeti transferti yig‘indisiga teng, ya’ni ko‘rsatkich jamg‘arma moliyalashtirilishining tuzilmasini o‘lchaydi.

Taklif etilayotgan me’yor jamg‘armalarga yo‘naltiriladigan tushumni ularning ehtiyojiga mutanosib taqsimlaydi:

$$\theta_i = (T^{jamg} / T) \cdot Need_i / \Sigma_k Need_k \quad (4)$$

bu yerda T jami ijtimoiy soliq tushumi, $T^{jamg}$ uning jamg‘armalarga yo‘naltiriladigan qismi. Natijada barcha jamg‘armalar uchun ehtiyojning ijtimoiy soliq hisobidan qoplanish ulushi yagona qiymatga keladi:


$$\lambda = T^{jamg} / \Sigma_k Need_k = const \quad (5)$$

Uchta ssenariy qiyoslandi: So amaldagi tartib; S1 to‘lovchi toifasi bo‘yicha tabaqalanishsiz yagona aralash me’yor; S2 (4) formula bo‘yicha har yili qayta hisoblanadigan me’yor. Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashining ulushi barcha ssenariylarda o‘zgarishsiz qoldirildi.

## Tahlil va natijalar muhokamasi.

Pensiya jamg‘armasining holati ikki qarama-qarshi tendensiya bilan tavsiflanadi (1-rasm). Qoplanish darajasi 2022–2026-yillarda 71,1–72,8 foiz oralig‘ida barqaror qolgan, chunki ijtimoiy soliq va xarajatlar deyarli bir xil sur’atda o‘sgan: 2025-yilda 22,0 va 19,7 foiz, 2026-yilda 12,9 va 12,4 foiz. Ayni paytda moliyalashtirish tafovuti 12,6 trln so‘mdan 23,4 trln so‘mga, ya’ni 1,86 baravarga kengaygan va to‘liq davlat budjeti transfertlari bilan qoplanadi; ular jamg‘arma xarajatlarining chorak qismini tashkil etadi. Rasmiy o‘rta muddatli prognoz ko‘rsatkichlariga muvofiq, pensiya ta’minoti tizimida xarajatlarning o‘z daromad manbalari hisobidan qoplanish darajasini 2028-yilga borib 81,6 foizga yetkazish nazarda tutilgan. Mazkur maqsadli ko‘rsatkichga erishish Pensiya jamg‘armasining moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash, davlat budjetidan ajratiladigan transfertlarga bo‘lgan ehtiyojni bosqichma-bosqich qisqartirish hamda ijtimoiy soliq tushumlarining barqaror o‘sishini ta’minlash bilan bevosita bog‘liq. Hisob-kitoblarga ko‘ra, belgilangan qoplanish darajasiga erishish uchun ijtimoiy soliq

tushumlarining yillik o‘sish sur’ati pensiya xarajatlari o‘sish sur’atidan 5,7–7,2 foiz bandga yuqori bo‘lishi talab etiladi. Biroq kuzatilgan davrda mazkur tafovut 2,3 foiz banddan oshmaganligi daromadlar va xarajatlar dinamikasi o‘rtasida sezilarli nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu holat amaldagi o‘sish tendensiyalari saqlanib qolgan sharoitda prognoz ko‘rsatkichlariga erishish murakkablashishi mumkinligini anglatadi.




***1-rasm. Pensiya jamg‘armasining qoplanish darajasi va moliyalashtirish tafovuti, 2022–2028-yillar [12; 13]***

Ijtimoiy soliq tushumlarini tegishli jamg‘armalar o‘rtasida taqsimlash me’yorlari ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ajratilayotgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish hamda davlatning ijtimoiy majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy soliqni taqsimlashning belgilangan me’yorlari, mablag‘larning jamg‘armalar bo‘yicha yo‘naltirilish tarkibi hamda tegishli moliyaviy summalar 1-jadvalda tizimlashtirilgan.

***1-jadval***

***Ijtimoiy soliq tushumlarining davlat maqsadli jamg‘armalari o‘rtasida taqsimlanishi***

| Oluvchi | 2024-yil, mlrd so‘m | 2025-yil, mlrd so‘m | 2026-yil, mlrd so‘m | Me’yor (2026): budjet tashkilotlari, % | Me’yor (2026): boshqa to‘lovchilar, % |
|---|---|---|---|---|---|
| Pensiya jamg‘armasi | 45 500,0 | 55 500,0 | 62 666,7 | 98,0 | 95,9 |
| Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi | × | × | 1 041,2 | 1,2 | 2,5 |
| Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi | 135,6 | 156,0 | 170,0 | 0,4* | 0,8* |
| Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasi | × | 156,0 | 170,0 | | |
| Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi | | | 340,2** | 0,4 | 0,8 |
| Jami to‘rtta jamg‘armaga | 45 635,6 | 55 812,0 | 64 047,9 | 99,6 | 99,2 |

***Izoh:*** *«×» tegishli yilda oluvchiga ijtimoiy soliq yo‘naltirilmaganini bildiradi. * Ikki jamg‘arma uchun birgalikda belgilangan me’yor. ** Qonun ilovalarida keltirilmaydi, jami tushumning tiklangan bahosi va me’yor asosida hisoblangan; kengash davlat maqsadli jamg‘armasi hisoblanmagani uchun jami satrga kiritilmagan.* ***Manba:*** *O‘RQ-886, O‘RQ-1011, O‘RQ-1105-son qonunlar ilovalari [7; 9; 10] va PQ-388-son qaror [8] asosida muallif hisob-kitobi.*

Jadvaldan uchta kuzatuv kelib chiqadi. Birinchidan, oluvchilar doirasi yillik hujjatlar bilan kengaymoqda: Kambag'allikni qisqartirish jamg'armasi faoliyati 2025-yilda tartibga solinib, ijtimoiy soliqdan ajratmalar uning mablag'lari manbalari qatoriga kiritilgan [11]. Ikkinchidan, Pensiya jamg'armasining ulushi 97,3 foiz, qolgan to'rt oluvchiniki 2,7 foiz; bu jamg'armalar hajmidagi farqni aks ettiradi va o'z-o'zidan kamchilik emas. Uchinchidan, me'yorlar to'lovchi toifasiga qarab tabaqalashtirilgan, biroq buning iqtisodiy asosi hujjatlarda bayon etilmagan: to'lovchilar tarkibi o'zgarmasa, (2) formula bo'yicha yagona aralash me'yor (97,326 / 1,617 / 0,528 / 0,528 foiz) aynan shu natijani beradi. Tushumning 67,9 foizini budjet tashkilotlari to'laydi, ya'ni jamg'armalar davlat budjeti bilan ikki kanal orqali bog'langan: transfert va ijtimoiy soliq bazasining o'zi.

Taqsimotning jamg'armalar ehtiyojiga muvofiqligi 2-jadvalda baholangan.

***2-jadval***

***Davlat maqsadli jamg'armalarining moliyalashtirish ehtiyoji va uning qoplanish manbalari, 2026-yil, mlrd so'm***

| *Jamg'arma* | *Xarajatlar* | *Ijtimoiy soliq* | *Davlat budjetidan transfert* | *Ehtiyoj, (3)* | *Ijtimoiy soliqning ehtiyojdagi ulushi, %* |
|---|---|---|---|---|---|
| ***Pensiya jamg'armasi*** | *86 093,2* | *62 666,7* | *23 000,0* | *85 666,7* | *73,15* |
| ***Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi*** | *3 353,7* | *1 041,2* | *1 500,0* | *2 541,2* | *40,97* |
| ***Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi*** | *381,5* | *170,0* | *150,0* | *320,0* | *53,12* |
| ***Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi*** | *138,0* | *170,0* | *150,0* | *320,0* | *53,12* |
| ***Jami*** | ***89 966,4*** | ***64 047,9*** | ***24 800,0*** | ***88 847,9*** | ***72,09*** |

***Manba:*** *O'RQ-1105-son Qonun ilovalari [7] va 2026–2028-yillar uchun Budjetnoma [13] asosida muallif hisob-kitobi.*

Ijtimoiy soliq tushumlarining davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlarini moliyalashtirishdagi ulushi jamg'armalar kesimida sezilarli darajada farqlanishi kuzatilmoqda. Xususan, mazkur ko'rsatkich Pensiya jamg'armasida 73,15 foizni, Ijtimoiy sug'urta jamg'armasida 40,97 foizni, qolgan ikkita jamg'armada esa 53,12 foizni tashkil etmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha hisoblangan variatsiya koeffitsiyentining 0,242 ga tengligi ijtimoiy soliq hisobidan xarajatlarni qoplash darajasida muayyan tafovutlar mavjudligini ifodalaydi. Mazkur holat jamg'armalarning moliyaviy mustaqilligi, daromad manbalarining yetarliligi hamda davlat budjeti transfertlariga bog'liqlik darajasi bir xil emasligini ko'rsatadi. Xarajatlarning ijtimoiy soliq tushumlari hisobidan qoplanmagan qismi davlat budjeti transfertlari orqali moliyalashtirilishi esa budjetlararo resurslarni taqsimlash mexanizmlarining shaffofligi va iqtisodiy asoslanganligini baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, jamg'armalar o'rtasida transfert mablag'larini taqsimlashda qo'llaniladigan mezonlarning ochiq e'lon qilinishi, ularning haqiqiy moliyaviy ehtiyoj, xarajat majburiyatlari va mavjud daromad salohiyatiga qanchalik muvofiqligini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, Kambag'allikni qisqartirish jamg'armasining moliyalashtirilishida e'tiborga molik nomuvofiqlik kuzatiladi. Jumladan, jamg'armaning o'z daromadlari 199,5 mlrd so'mni, xarajatlari esa 138,0 mlrd so'mni tashkil etib, daromadlar xarajatlardan 61,5 mlrd so'm yoki 44,6 foizga yuqori bo'lishiga qaramay, unga davlat budjetidan


qo‘shimcha 150,0 mlrd so‘m transfert ajratilgan. Ushbu tafovut transfert ajratish qarorlari faqat joriy davrdagi daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farqqa asoslanmasligini ko‘rsatadi. Biroq transfertlarning maqsadli yo‘nalishlari, kelgusi davr majburiyatlari va mablag‘lardan foydalanish cheklovlari to‘g‘risidagi qo‘shimcha ma’lumotlarsiz bunday ajratmalarni iqtisodiy jihatdan asossiz deb baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

*3-jadval*

***Amaldagi tartib (S0) va taklif etilayotgan mexanizm (S2) natijalari, 2026-yil, mlrd so‘m***

| Jamg‘arma | S0: ijtimoiy soliq | S0: transfert | S2: ijtimoiy soliq | S2: transfert | S2 dagi me’yor, % |
|---|---|---|---|---|---|
| Pensiya jamg‘armasi | 62 666,7 | 23 000,0 | 61 754,8 | 23 911,9 | 95,910 |
| Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi | 1 041,2 | 1 500,0 | 1 831,9 | 709,3 | 2,845 |
| Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi | 170,0 | 150,0 | 230,7 | 89,3 | 0,358 |
| Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasi | 170,0 | 150,0 | 230,7 | 89,3 | 0,358 |
| **Jami** | **64 047,9** | **24 800,0** | **64 048,1** | **24 799,8** | **99,471** |

***Izoh:*** *S2 dagi me’yorlar jami ijtimoiy soliq tushumiga (64 388,3 mlrd so‘m) nisbatan hisoblangan; qolgan 0,529 foiz kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga tegishli. S1 to‘lovchilar tarkibi o‘zgarmagan sharoitda So bilan bir xil natija beradi. Yig‘indilardagi 0,2 mlrd so‘mlik farq yaxlitlashdan kelib chiqadi.* ***Manba:*** *2-jadval ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.*




***2-rasm. Jamg‘armalar moliyalashtirish ehtiyojining ijtimoiy soliq hisobidan qoplanish ulushi***

Natijalar to‘rtta xulosaga olib keladi. Birinchidan, taklif davlat budjeti uchun neytral: transfertlarning jami hajmi 24 800,0 mlrd so‘mdan 24 799,8 mlrd so‘mga, ya’ni yaxlitlash farqi doirasida o‘zgaradi. Ikkinchidan, qayta taqsimot miqyosi cheklangan: Pensiya jamg‘armasidan uchta kichik jamg‘armaga 911,9 mlrd so‘m (jami tushumning 1,4 foizi) o‘tadi va bu transfertning teng miqdorda oshishi bilan qoplanadi. Uchinchidan, barcha jamg‘armalar uchun qoplanish ulushi 72,09 foizda tenglashadi, variatsiya koeffitsiyenti 0,242 dan nolga tushadi; eng katta siljish Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasida (+31,12 foiz bandi). To‘rtinchidan, hisoblangan me’yorlar amaldagi qiymatlar doirasidan chiqmaydi: Pensiya jamg‘armasi uchun u 95,910 foiz.


Taqsimlash me’yori jamg‘armalar o‘rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etadi, biroq Pensiya jamg‘armasining tuzilmaviy tafovutini yopa olmaydi. Jamg‘arma ijtimoiy soliqning

97,3 foizini allaqachon oladi, me'yorni oshirish orqali olinadigan maksimal qo'shimcha resurs 1 721,6 mlrd so'm, tafovut esa 23,4 trln so'm. Shu sababli ikkinchi taklif tafovutni yopishga emas, davlat budjeti majburiyatini bashoratli qilishga qaratilgan. Hozirda transfert qoldiq tamoyili bo'yicha belgilanadi, jamg'arma zaxirasi esa e'lon qilingan me'yorga ega emas: u 2026-yil boshida xarajatlarning 0,55 oyiga, yil oxirida 0,77 oyiga teng bo'lishi prognoz qilingan [13]. Transfertni zaxiraning maqsadli darajasiga bog'lash taklif etiladi:

$$T^{pens} = X + q^{maqsad} \cdot X / 12 - Q^{boshlang} - D^{o'z} \quad (6)$$

bu yerda X jamg'arma xarajatlari, $Q^{boshlang}$ yil boshidagi qoldiq mablag'lar, $D^{o'z}$ jamg'armaning o'z daromadlari, mlrd so'm; $q^{maqsad}$ zaxiraning maqsadli darajasi, oylarda. Pensiya to'lovlari oylik siklda amalga oshirilgani uchun maqsadli daraja bir oylik xarajat miqdorida belgilanadi: bu tushumlar bir oyga kechikkanda ham to'lovlar to'xtamasligini ta'minlaydigan eng kichik chegara.

3-rasmda zaxiraning uch varianti qiyoslangan. 0,5 oylik daraja to'lov siklini qoplamaydi, 1,5 oylik daraja esa 5 219,1 mlrd so'm qo'shimcha transfert, ya'ni xarajatlarning 6,1 foiziga teng ishlatilmaydigan zaxira talab qiladi. Bir oylik daraja 2026-yilda 1 631,9 mlrd so'm (xarajatlarning 1,9 foizi) qo'shimcha transfert bilan ta'minlanadi va transfertni yashirin qoldiqdan oshkor hisob-kitob natijasiga aylantiradi.




*3-rasm. Pensiya jamg'armasi zaxirasining maqsadli darajasi variantlari bo'yicha qo'shimcha transfert, 2026-yil [13]*

Mexanizmni joriy etish ikki hujjat darajasida amalga oshiriladi: ijtimoiy soliqni taqsimlash me'yorlari to'g'risidagi yillik Prezident qarorida me'yorlarni (4) formula bo'yicha hisoblash tartibi belgilanadi, Budjet kodeksida esa davlat maqsadli jamg'armalari zaxirasining maqsadli darajasi va transfertning (6) formula bo'yicha hisoblanishi mustahkamlanadi [5]. Qo'shimcha ravishda to'lovchi toifasi bo'yicha tabaqalanishni bekor qilish va ijtimoiy soliqning jami tushumini rasmiy hisobotlarda alohida ko'rsatkich sifatida e'lon qilish maqsadga muvofiq.

## *Xulosa va takliflar.*

Birinchidan, ijtimoiy soliq taqsimotida oluvchilar doirasi uch yilda ikkitadan beshtaga kengaygan, me'yorlar esa yillik qarorlar bilan e'lon qilinmagan mezon asosida belgilanmoqda. Rasmiy hujjatlarda ko'rsatilmaydigan jami tushum 2026-yil uchun 64 388,3 mlrd so'm, undagi budjet tashkilotlari ulushi 67,9 foiz ekani aniqlandi.

Ikkinchidan, Pensiya jamg'armasining qoplanish darajasi 2022–2026-yillarda 71,1–72,8 foizda barqaror, mutlaq tafovut esa 1,86 baravarga kengaygan. Jamg'armalar

o‘rtasida ehtiyojning ijtimoiy soliq hisobidan qoplanish ulushi 40,97 foizdan 73,15 foizgacha farq qiladi.

Uchinchidan, ehtiyojga bog‘langan me’yor modeli ishlab chiqildi: 2026-yil parametrlarida me’yorlar 95,910 / 2,845 / 0,358 / 0,358 foizni tashkil etadi, qoplanish ulushi barcha jamg‘armalar uchun 72,09 foizda tenglashadi, qayta taqsimot 911,9 mlrd so‘m bilan cheklanadi va davlat budjeti transfertlarining umumiy hajmi o‘zgarmaydi.

To‘rtinchidan, Pensiya jamg‘armasining tuzilmaviy tafovuti taqsimlash me’yori bilan yopilmaydi, shuning uchun zaxira qoldig‘ining bir oylik xarajatlarga teng maqsadli me’yori va unga asoslangan transfert formulasi taklif etildi. Bu davlat budjetining jamg‘arma oldidagi majburiyatini oshkor va bashoratli qiladi.

### *Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:*

*1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-son Qonun bilan tasdiqlangan. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/docs/-4674902*

*2. Buchanan J. M. The Economics of Earmarked Taxes // Journal of Political Economy. — 1963. — Vol. 71, No. 5. — P. 457–469. — DOI: 10.1086/258794.*

*3. McCleary W. The Earmarking of Government Revenue: A Review of Some World Bank Experience // The World Bank Research Observer. — 1991. — Vol. 6, No. 1. — P. 81–104.*

*4. Musgrave R. A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. — New York: McGraw-Hill, 1959. — 628 p.*

*5. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi: 2013-yil 26-dekabrdagi O‘RQ-360-son Qonun bilan tasdiqlangan. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/docs/-2304138*

*6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi 661-son «Ijtimoiy soliqni taqsimlash, pensiya va boshqa to‘lovlarni to‘lash uchun ajratilgan xarajatlarni qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/docs/-6693921*

*7. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son «2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi Qonuni. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-7949060*

*8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-388-son «O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-7959569*

*9. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son «2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi Qonuni. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.*

*10. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son «2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi Qonuni. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-7277618*

*11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-martdagi 158-son «Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-7428395*

*12. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2025–2027-yillar uchun Budjetnoma. — Toshkent, 2024. — URL: https://gov.uz/oz/imv/sections/view/111310*

*13. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2026–2028-yillar uchun Budjetnoma. — Toshkent, 2025. — 254 b. — URL: https://gov.uz/oz/imv/sections/view/111310*

14. Cichon M., Scholz W., van de Meerendonk A., Hagemejer K., Bertranou F., Plamondon P. Financing Social Protection. — Geneva: International Labour Office, 2004. — 663 p.

15. Barr N. Economics of the Welfare State. — 5th ed. — Oxford: Oxford University Press, 2012. — 416 p.

16. Holzmann R., Hinz R. Old-Age Income Support in the 21st Century: An International Perspective on Pension Systems and Reform. — Washington, DC: World Bank, 2005. — 232 p.

17. Hamdamov Sh. K. Aholini ijtimoiy himoyalashda pensiya ta’minotining ahamiyati // Science and Education. — 2021. — J. 2, № 8. — B. 700–717.

18. Khamdamov Sh. Assessment of Risks Related to Pension Support of Citizens Concerning Pensions by Age // International Finance and Accounting. — 2020. — Vol. 2020, No. 2. — Article 8.

19. Meyliyev O. R. Mahalliy budjetlar daromadlarini tartibga solishni takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2022. — 73 b.

20. Islamkulov A. X. Budjetlararo mutanosiblikni ta’minlashda soliqlar tizimini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2020. — 71 b.

21. Qobulov X. A. Hudud daromad salohiyati shakllanishining metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2026. — 245 b.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrdagi PQ-455-son «O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-7283107